

**EDUCATING YOUTH IN THE SPIRIT OF NATIONAL VALUES THROUGH THE
WORKS OF ABDULLA ORIPOV****Mahmudova Niginabonu Mizrof qizi**

Student, Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

E-mail: nigina.mahmudova06@gmail.com**Annotation**

This article analyzes the significance of the works of Abdulla Oripov in educating young people in the spirit of national values. It demonstrates that the poet's works can effectively contribute to the development of patriotism, national pride, honesty, self-awareness, and moral qualities among the younger generation.

The paper examines the poet's poems dedicated to the theme of the Motherland, his sincere and expressive emotional style, and his ability to elevate national values. Special attention is given to how his poetry influences the formation of spiritual and ethical qualities in youth.

Keywords

Abdulla Oripov, national spirit, patriotism, identity, spirituality, youth education, poetry, national values, emotions and feelings.

ABDULLA ORIPOV ASARLARI ORQALI YOSHLARNI MILLIY RUHDA TARBIYALASH**Mahmudova Niginabonu Mizrof qizi**

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti talabasi

e-mail: nigina.mahmudova06@gmail.com**Annotatsiya**

Ushbu maqolada Abdulla Oripov ijodining yoshlarni milliy ruhda tarbiyalashdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shoir asarlari orqali yosh avlodda Vatanparvarlik, milliy iftixor, halollik, o'zlik va ma'naviy fazilatlarni shakllantirish mumkinligi ko'rsatildi. Maqolada shoirning Vatan mavzusidagi she'rlari, tuyg'ularni ochiq va samimiy ifodalashi, milliy qadriyatlarni yuksaltiruvchi xususiyatlari tahlil qilinadi.


Kalit so'zlar

Abdulla Oripov, milliy ruh, Vatanparvarlik, o'zlik, ma'naviyat, yoshlar tarbiyasi, she'riyat, milliy qadriyatlar, tuyg'u va hissiyot.

Abdulla Oripov asarlari o‘zbek adabiyotida milliy ruh, vatanparvarlik va ma’naviy qadriyatlarni targ‘ib qiluvchi muhim manbalardan biridir. Uning she‘rlari orqali yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalash mumkin, chunki shoir ijodida xalqning tarixi, urf-odatlar va Vatanga muhabbat chuqur ifodalangan.

O‘tgan asrning 60-70- yillarida Abdulla Oripov she‘riyati o‘zbek millatini tuyg‘ularning qurib qolishidan saqlab qoldi. Shuning uchun ham shoirni o‘zbek she‘riyatida o‘z davrini yaratgan ijodkor deyish mumkin. Chunki chinakam iste’dodgina davrning to‘siqlari, cheklovlarini yengib o‘ta oladi. Har qanday zamon va har qanday sharoitda ham asl iste’dod davridan marhamat kutmaydi, balki unga o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

Abdulla Oripov she‘rlaridagi beaded samimiyat, tuyg‘ular chinligi kishini beixtiyor o‘ziga asir qiladi. Shoir she‘rlari kayfiyat va hissiyotning yaxlit obrazlaridir. U inson tuyg‘ularini, hissiyotini shu qadar chuqur bilgani va ifoda eta olganidan butun she‘r emas, balki ayrim misralarning o‘ziyoq she‘rxonda muayyan kayfiyat hosil qiladi.



1-rasm. Abdulla Oripov asarlarining tarbiyaiy ta’siri

Abdulla Oripov she‘rlarida Vatan obraziga alohida o‘rin beriladi. U yoshlarni ona yurtni sevishtga, uni qadrlashga va himoya qilishga undaydi. Masalan, shoirning “Men nechun sevaman O‘zbekistonni?”, “O‘zbekiston” , "Yurtim shamoli" kabi she‘rlarida yurtga sadoqat, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ulari aks etadi. Bu asarlar yoshlarning qalbida Vatanga bo‘lgan muhabbatni kuchaytiradi.

“Abdulla qaysi bir temaga qo‘l urmasin, nima haqida she‘r yozmasin, uning ko‘zi oldida Ulug‘ Vatan tura-di, o‘sha ulug‘ Vatan-ning farzandi sifatida qo‘liga qalam oladi. Shu sababdan uning she‘rlari doim hayotbaxsh, pafosi baland, ovozi dadil, ruhi tetik” , - deb yozadi Matyoqub Qo‘shjonov.

Shu nuqtai nazardan, Abdulla Oripovning har bir she‘ri nafaqat hissiy kuch bilan to‘la, balki yoshlarni milliy qadriyatlar va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Abdulla Oripov asarlari yosh avlodni mustaqil fikrlashga, yurt taqdiriga befarq bo‘lmaslikka va jamiyat ravnaqi uchun mas‘uliyatni his etishga chorlaydi. Uning she‘rlari orqali yoshlarda yurtga sadoqat, milliy iftixor va vatanparvarlik fazilatlarini shakllanadi.

Abdulla Oripov she‘riyatining o‘ziga xosligi shundaki, u behad o‘ziga xos shoir. U sevsa, yonib, o‘rtanib sevadi, agar nafratlansa, sevgisi darajasidagi kuchli dard, armon bilan nafratlanadi. Unda hech qachon oraliq holat bo‘lmaydi.

Men shoirman, istasangiz shu,

O‘zinniki erur shu so‘zim.

Birovlardan olmadim tuyg‘u,

O‘zgaga ham bermam ovozim,- degan so‘zlari yoshlar ongida o‘zligini anglash, milliy va shaxsiy qadriyatlarni himoya qilish g‘oyasini mustahkamlaydi. Bu yosh avlodni ichki kuch va o‘ziga ishonch bilan tarbiyalaydi.

Shoir asarlarida halollik, adolat, insonparvarlik va mehr-muhabbat kabi fazilatlar targ‘ib qilinadi. Yoshlar uning she‘rlari orqali hayotdagi yaxshi fazilatlarini qadrlash va ularni o‘zlarida rivojlantirishni o‘rganadilar.

Abdulla Oripov tuyg‘ularni ochiq va samimiy ifodalaydi, bu yoshlarni o‘z his-tuyg‘ularini anglashga, ularga mos ravishda harakat qilishga va ruhiy jihatdan mustahkam bo‘lishga undaydi. Shu bilan birga, uning she‘rlari milliy ruhni uyg‘otadi, yoshlarni Vatan, til va xalq merosiga muhabbat bilan tarbiyalaydi.



2-rasm. Ta'lim jarayonida she'riyatni qo'llash

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Oripov she'riyatining o'ziga xosligi – tuyg'ularni kuchli, samimiy va oshkora ifodalash, o'zlikka sodiqlik va milliy ruhni yuksaltirishdir. Shu jihatlar uning asarlarini yoshlar ongini shakllantirish, ularni halol, ma'naviy mustahkam va Vatanga muhabbat bilan tarbiyalashda muhim vositaga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Qo'shjonov, M. Kamalakday serjilo – Abdulla Oripov. Yillar armoni , 3-bet.
2. Abdulla Oripov. Yillar armoni. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabi
3. Oripov A. Men nechun sevaman O'zbekistonni . – Toshkent: "G'afur G'ulom" nashriyoti, 1990.
4. Qo'shjonov M. O'zbek she'riyatining yorqin namoyondalari . – Toshkent: "Muxlis", 200
5. Abdulhakimova, O. Abdulla Oripov lirik konsepsiyasining adabiy-estetik muhit bilan umumiyliigi . – Onlayn jurnal, 2020.

